



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish
sifatining ichki nazorati to‘g‘risida nizom hamda malaka oshirganlik
to‘g‘risidagi sertifikatlarni rasmiylashtirish tartibini tasdiqlash
haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda 867-son qaroriga asosan maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazoratini hamda malaka oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikatlarini rasmiylashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

Quyidagilar:

1. Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to‘g‘risida nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) 1-ilovaga muvofiq;

Malaka oshirish kurslari ta’lim dasturlari talablarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchilarga beriladigan sertifikatlarni rasmiylashtirish tartibi (keyingi o‘rinlarda - Tartib) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova), Pedagogik mahorat markazlari rahbarlariga:

maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazoratini tashkil etishda hamda malaka oshirish kurslari va ular oralig‘ida tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarida to‘liq ishtirok etgan va tegishli topshiriqlarni bajargan pedagog va mutaxassis xodimlarga beriladigan sertifikatlarni rasmiylashtirishda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Nizom va Tartibga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;

A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti

K/R: 01-03/76

2025-yil 30-yanvar

Nizom hamda Tartibni barcha xodimlar va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga tanishtirish hamda faoliyat davomida ushbu hujjatlarga qat'iy amal qilish bo'yicha mas'uliyatini oshirish;

ichki (dastlabki, oraliq va yakuniy) nazorat uchun testlar hamda yakuniy attestatsiya uchun malaka ishi mavzulari banklarini shakllantirish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (X.Raximbayeva) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy boshqarma va bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tegishli tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,
2025-yil "28"-yanvar,
23-son

**Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari
malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazoratini o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlari malakasini oshirish sifatining **ichki nazorati – dastlabki nazorat, oraliq nazorat** va **yakuniy attestatsiya** shaklida o'tkaziladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

dastlabki nazorat – kurs boshida tinglovchilarning kurs dasturini o'zlashtirishga tayyorligi darajasini, bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash, aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash maqsadida o'tkaziladigan ichki nazorat turi;

kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Pedagogik mahorat markazlari, malaka oshirish faoliyati bilan shug'ullanadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari, pedagog kadrlar tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasalari;

loyiha ishi – muayyan pedagogik muammoni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to'g'ri hal etish yo'lini taqdim etishgacha bo'lgan va tinglovchi(lar) tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan o'quv faoliyati;

malaka ishi – malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan muayyan bir mavzu yoki yo'nalish doirasida mustaqil tayyorlangan, tugallangan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ilmiy-uslubiy ish;

malaka oshirish kursi – malaka oshirishning tasdiqlangan o'quv rejasi va dasturlari asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi;

malaka talablari – kasbiy rivojlanish kursi bitiruvchisining umumiy bilim va kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar;

dars – ta'limning asosiy tashkiliy shakli bo'lib, muayyan miqdordagi doimiy ta'lim oluvchilar tarkibi bilan belgilangan tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbir;

mikrodars – o'qituvchi tomonidan muayyan mavzu bo'yicha cheklangan vaqt ichida o'ziga xos, alohida usul va uslublarni tashkil qilingan dars;

oralik nazorat – kurs davomida o‘quv dasturining muayyan bo‘limi (moduli) tugallangandan keyin tinglovchining bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli;

tinglovchi – kasbiy rivojlantirish ta‘lim tashkilotining malaka oshirish kursiga qabul qilingan xodim;

strategik reja – tinglovchi mehnat qiladigan ta‘lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq tadbirlar, mexanizmlar, muddatlar, mas‘ullar hamda kutilayotgan natijani o‘zida aks ettirgan reja;

yakuniy attestatsiya – malaka oshirish kurslari oxiridagi yakuniy nazorat sinovi, ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha topshiriqlarni bajarishdan iborat malaka ishini himoya qilish shaklida o‘tkaziladigan baholash jarayonlari;

yakuniy nazorat sinovi – kurs yakunida uning dasturiga kiruvchi fanlar bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli;

maxsus elektron platforma – yakuniy nazorat sinovini o‘tkazish va malaka ishi himoyasi (loyiha ishi yoki mikrodars taqdimoti va boshqalar) jarayonlarini tashkil etadigan markazlashgan elektron dasturiy tizim;

2-bob. Dastlabki nazorat

4. **Dastlabki nazorat** kasbiy rivojlantirish ta‘lim tashkiloti tomonidan kurs boshida tinglovchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirishga tayyorligi darajasini va bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash maqsadida o‘tkaziladi.

5. Dastlabki nazorat kursni tashkil qilgan kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbari tasdiqlagan reja-jadvalga muvofiq unda belgilangan guruh va muddatlarda tashkilotning ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan o‘tkaziladi.

6. Dastlabki nazorat natijalari ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan tahlil qilinadi va tegishli takliflar bilan birga kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbariga taqdim qilinadi.

7. Dastlabki nazorat xolislik, shaffoflik va tezkorlikni ta‘minlash maqsadida kompyuter vositasida test sinovi (kirish testi) shaklida o‘tkaziladi. Dastlabki nazoratning samaradorligini ta‘minlash maqsadida bilimlarni aniqlashning boshqa (yozma ish, diktant, so‘rovnoma va h.k.) shakllaridan ham foydalanish mumkin.

8. Dastlabki nazorat o‘quv jarayoniga xalal bermagan holda, darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi.

9. Test shaklida o‘tkaziladigan dastlabki nazorat maxsus kompyuter dasturi orqali o‘tkaziladi. Mazkur kompyuter dasturining mobil versiyasidan foydalangan holda dastlabki nazoratni onlayn tarzda o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi.

10. Dastlabki nazorat natijalari tinglovchilarning oralik va yakuniy nazorati (attestatsiyasi) natijalariga ta‘sir etmaydi, lekin kursning o‘quv modullari bo‘yicha kontentlar (ma‘ruza matnlari, amaliy dars ishlanmasi va boshqa o‘quv materiallari) mazmuniga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishga asos bo‘ladi.

3-bob. Oraliq nazorat

11. **Oraliq nazorat** kursning o'quv rejasidagi o'quv modullari (yoki o'quv bloki) tugagandan keyin tinglovchining bilim va ko'nikmalarini baholash maqsadida yakka tartibdagi topshiriqlar (test, referat, ishlanma, yozma ish, kurs ishi, mustaqil, amaliy ishlar, sinovlar va shu kabilar) shaklida o'tkaziladi.

12. Oraliq nazorat malaka oshirish kursining o'quv rejasiga binoan kursni tashkil qilgan kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbari tasdiqlagan reja-jadvalga muvofiq unda belgilangan guruh va muddatlarda tashkilotning ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan o'tkaziladi.

13. Oraliq nazorat natijalari ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan tahlil qilinadi va tegishli takliflar bilan birga kasbiy rivojlantirish tashkiloti rahbariga taqdim qilinadi.

14. Oraliq nazoratlar o'tkaziladigan o'quv modullari (o'quv bloklari) malaka oshirish kursining o'quv rejasida belgilanadi. Oraliq nazoratlarni o'tkazish shakli va undagi topshiriqlar soni kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan belgilanadi. Oraliq nazorat topshiriqlari tegishli kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi.

15. Oraliq nazorat topshiriqlarini baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi. Oraliq nazorat topshiriqlari uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizidan (55 balldan) kam natijaga erishgan tinglovchi oraliq nazoratlarda yetarli ball to'play olmagan hisoblanadi.

16. Oraliq nazorat kursning o'quv rejasiga kiruvchi bir-nechta o'quv modullari bo'yicha alohida-alohida o'tkazilgan bo'lsa ularning har biri uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizidan kam bo'lmagan natijaga erishgan tinglovchi oraliq nazoratda yetarli ball to'plagan hisoblanadi. Bunda oraliq nazoratning natijasi alohida-alohida o'tkazilgan nazoratlar natijalarining o'rtachasi sifatida aniqlanadi.

17. O'quv jarayoni o'quv modullaridan iborat bloklar tarzida tashkil etilgan kurslarda oraliq nazorat, har bir blok yakunida, uning tarkibiga kiruvchi har bir o'quv moduli bo'yicha alohida-alohida va turli shakllarda, shuningdek blok tarkibiga kiruvchi barcha o'quv modullari bo'yicha ularga ajratilgan dars soatlariga mutanosib ulushda shakllantirilgan yagona test bankidan foydalanilgan tarzda test sinovi shaklida o'tkazilishi mumkin.

18. Oraliq nazoratlarda yetarli ball to'play olmagan tinglovchiga kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbari ruxsati bilan (bir kundan so'ng) qayta topshirishga imkoniyat beriladi. Oraliq nazorat topshiriqlarini bajarmagan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga qo'yilmaydi.

19. Oraliq nazorat natijalari uni o'tkazgan ishchi guruhi tomonidan tegishli qaydnomalarga kiritiladi va akademik faoliyatni tashkil etish bo'limiga taqdim etiladi.

20. Kursning o'quv rejasida oraliq nazorat belgilanmagan bo'lsa uning o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4-bob. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarining yakuniy attestatsiyasi

21. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarining yakuniy attestatsiyasi mazkur kurslarning o'quv rejasi hamda o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq tashkil etiladi.

22. Yakuniy attestatsiya malaka oshirish kursi oxirida o'tkaziladigan yakuniy nazorat va malaka ishi himoyasidan iborat.

23. Yakuniy nazorat kompyuter vositasida test sinovi shaklida o'tkaziladi.

24. Yakuniy attestatsiya ta'lim muassasasida malaka oshirish kurslari bo'yicha tuziladigan yakuniy attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy attestatsiya komissiyalarini tuzish tartibi

23. Yakuniy attestatsiya komissiyalari (keyingi o'rinlarda – Komissiya) rais va 2 ta a'zodan iborat tarkibda har oyda shakllantiriladi va ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Komissiyalar raisi va tarkibi ta'lim tashkilotining malakali professor-o'qituvchilari, ta'lim boshqaruvini amalga oshiradigan tashkilotlarning tajribali mutaxassislari yoki nodavlat ta'lim tashkilotlarining vakillaridan iborat bo'ladi.

25. Komissiyalar tarkibi ta'lim muassasasi rahbari tomonidan yakuniy attestatsiya sinovi boshlanishidan kamida bir hafta oldin tasdiqlanadi.

26. Komissiyalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
tinglovchilarning malaka ishi himoyasining belgilangan mezonlar asosida baholash;

yakuniy nazorat sinovi va malaka ishi natijalarini umumlashtirish;

yakuniy attestatsiya natijalari bo'yicha bayonnomalarni rasmiylashtirish.

27. Komissiyalar o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining malakasini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etadi.

28. Professor-o'qituvchilarning Komissiya tarkibida faoliyat ko'rsatgan davri kursning o'quv rejasi va amaldagi "Vaqt me'yorlari"ga muvofiq ularning bajarilgan o'quv yuklamalariga kiritiladi.

29. Tashkilotning professor-o'qituvchi lavozimida ishlamaydigan Komissiya raisi va a'zolariga o'quv rejasi va amaldagi "Vaqt me'yorlari"ga muvofiq soatbay asosda haq to'lanadi.

6-bob. Yakuniy nazorat (test sinovlari)ni tashkil etish

30. Yakuniy nazorat (test sinovi) davlat ta'lim talablarida belgilangan zaruriy talablar mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni tinglovchi tomonidan o'zlashtirilganligi darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

31. Yakuniy nazorat sinovi malaka oshirish kursining o'quv rejasida ko'zda tutilgan barcha o'quv modullari bo'yicha ularga ajratilgan soatlar hajmiga mos

ravishda (har bir soat dars uchun kamida 4 tadan) shakllantirilgan test savollari zaxirasi asosida o'tkaziladi.

32. Yakuniy nazorat sinovi uchun testlar test savollari zaxirasi tarkibidan o'quv rejasidagi o'quv bloklari va modullariga ajratilgan soatlar miqdoriga mos nisbatlarda tanlab olinadi.

33. Yakuniy nazorat sinovi uchun zaxiradan tanlab olinadigan va test sinovi jarayonida tinglovchiga taqdim etiladigan test savollari miqdori A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan belgilanadi.

34. Baholash jarayonining xolisligi va tezkorligini ta'minlash maqsadida yakuniy nazorat uchun zaxiradan test savollarini tanlab olish va test sinovini o'tkazish maxsus kompyuter dasturi vositasida amalga oshiriladi.

35. Yakuniy nazorat ta'lim muassasasining tegishli kursda dars mashg'ulotlarini olib borishga jalb qilinmagan mutaxassislaridan shakllantirilgan ishchi guruhi tomonidan o'tkaziladi. Mazkur ishchi guruh tarkibi Kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

36. Yakuniy nazorat kompyuter tomonidan tinglovchiga dastlabki test savolini taqdim etgan vaqtdan boshlanadi va test sinovlarini bajarish uchun har bir test savoliga 2 daqiqadan vaqt beriladi.

37. Yakuniy nazoratni o'tkazishda foydalaniladigan kompyuter dasturi taqdim etilayotgan barcha test savollarini tinglovchi tomonidan ko'zdan kechirib chiqish, ularga birin-ketin yoki tanlab olgan holda javob berish, test sinovini ajratilgan muddatdan ilgari tugatish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim.

38. Yakuniy nazorat 40 ballik (100 foiz) mezon asosida baholanadi.

39. Yakuniy nazorat natijalari ishchi guruhi tomonidan tegishli qaydnomaga kiritiladi va 1-ilovada keltirilgan namunadagi qaydnoma rasmiylashtiriladi va akademik faoliyatni tashkil etish bo'limiga topshiriladi.

40. Yakuniy nazorat jarayonlarini tashkil qilish va o'tkazish A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan muvofiqlashtiriladi.

7-bob. Malaka ishi himoyasi va uni baholash

41. Malaka ishi mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan talablar asosida kurs tinglovchilari tomonidan mustaqil ravishda tayyorlanadi va maxsus elektron platformaga tinglovchi tomonidan yuklanadi.

42. Malaka ishi himoyasi maxsus jihozlangan o'quv xonalarida zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida, taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

43. Kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan malaka ishi mavzusining xususiyatlariga ko'ra ularning himoyasini tashkil etish va o'tkazishning boshqa shakllari belgilanishi mumkin.

44. Malaka ishi uning shakliga muvofiq tarzda **muayyan bir mavzu** yoki **muayyan faoliyat yo'nalishi** bo'yicha tayyorlanadi va himoya qilinadi.

45. **Muayyan bir mavzu** bo'yicha tayyorlanadigan malaka ishining mavzulari ta'lim tashkiloti tomonidan kursdagi dars mashg'ulotlarining birinchi haftasida e'lon qilinadi va tinglovchilar tomonidan tanlanadi.

46. **Muayyan bir mavzu** bo'yicha malaka ishi mavzudan kelib chiqqan holda **loyiha ishi** yoki **mikrodars** shaklida tayyorlanishi mumkin.

Loyiha ishi shaklida bajarilgan malaka ishini baholash mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Mikrodars shaklida bajarilgan malaka ishini baholash mazkur Nizomning 4-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

47. Tinglovchilarga malaka ishi mavzularining ro'yxati akademik faoliyatni tashkil etish bo'limi tomonidan kurs mashg'ulotlarining birinchi haftasida taqdim etiladi.

48. **Muayyan faoliyat yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan malaka ishini baholash** mazkur Nizomga 5-ilovada keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

49. Malaka ishi himoyasi (taqdimoti) bahosi himoyada ishtirok etgan attestatsiya komissiyasining har bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar o'rtachasi hisobidan aniqlanadi.

50. Yakuniy attestatsiyaning baholash jarayonlari maxsus elektron platforma orqali amalga oshirilishi mumkin.

51. Malaka ishi 60 ballik (100 foiz) mezon asosida baholanadi.

52. Komissiyaning har bir a'zosi malaka ishi bo'yicha tinglovchiga qo'ygan balni tinglovchi xonani tark etmasdan o'qib eshittiradi.

53. Malaka ishi himoyasiga qo'yilgan baholar ushbu Nizomning 6-ilovasidagi qaydnomada qayd etiladi.

54. Malaka ishi himoyasi (taqdimot)da uzrli sabablarsiz qatnashmagan tinglovchining malaka ishi himoyasi qoniqarsiz baholangan hisoblanadi.

55. Yakuniy attestatsiya sinovlari test sinovi va malaka ishi himoyasini o'tkazish bosqichlari yoki ketma-ketligi kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti tomonidan belgilanadi.

9-bob. Yakuniy attestatsiya natijalarini umumlashtirish

56. Yakuniy attestatsiyaning umumiy natijasi yakuniy nazorat va malaka ishi himoyasi natijalari yig'indisi (jami 100 ballgacha)dan iborat bo'ladi.

57. Tinglovchilar yakuniy attestatsiya bosqichlaridan kamida 56 ball va undan yuqori natija ko'rsatsa, uni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi hamda ularga sertifikat beriladi.

58. Yakuniy attestatsiyaning umumiy bahosi yakuniy nazorat va malaka ishi himoyasining baho (ball)lari yig'indisi sifatida aniqlanadi.

59. Yakuniy attestatsiyada qo'yilgan baholar komissiya majlisi qarori bilan ushbu Nizomning 6-ilovasiga muvofiq bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

60. Yakuniy attestatsiya natijalari ijobiy bo'lsa, komissiya tomonidan tinglovchiga malaka oshirganlik haqida tasdiqlangan namunadagi sertifikat berish haqida qaror qabul qilinadi.

61. Yakuniy attestatsiya natijalari salbiy bo'lgan tinglovchiga kursda o'qiganligi to'g'risida ushbu Nizomning 7-ilovasidagi shaklga muvofiq ma'lumotnoma beriladi.

62. Yakuniy attestatsiya komissiyasi bayonnomasi uning raisi hamda a'zolari tomonidan imzolanib rasmiylashtiriladi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

63. Uzrli sabablarga ko'ra yakuniy nazorat yoki malaka ishi himoyasiga qatnasha olmagan tinglovchi kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbarining ruxsati bilan mazkur kurs davom etadigan muddat ichida boshqa guruhda o'tkaziladigan yakuniy nazorat yoki malaka ishi himoyasiga kiritilishi mumkin.

“Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari
xodimlari malakasini oshirish sifatining
ichki nazorati to‘g‘risida nizom”ga
1-ILOVA

**Malaka oshirish kursi tinglovchilari tomonidan yakuniy nazoratda
(test sinovida) qayd etilgan natijalar**

T/r	Tinglovchining F.I.Sh	Sinov natijasi (maks.ball – 40)
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
...		

Akademik faoliyatni
tashkil etish bo‘limi _____

“ _____ ” _____ 20__y.

Malaka ishini bajarishga qo’yiladigan talablar

1-§. Malaka ishi va uning shakllari

1. Malaka ishini bajarish malaka oshirish kurslari tinglovchilarini o’qitishning yakuniy bosqichi hisoblanib, tinglovchi tomonidan o’qitish uslubiyati, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish yo’nalishlari bo’yicha **muayyan bir mavzu** yoki **muayyan faoliyat yo’nalishi** doirasida mustaqil yozilgan va mantiqan tugallangan o’quv-uslubiy ishlarning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan natijasi hisoblanadi.

2. **Muayyan mavzudagi** malaka ishi fanlarni o’qitish uslubiyati, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning dolzarb jihatlariga bog’lanishi hamda o’quv-uslubiy yoki tashkiliy-amaliy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan bo’lishi lozim.

3. Muayyan mavzuda tayyorlanadigan malaka ishlari uchun namunaviy mavzular ro’yxati shakllantiriladi va kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti ta’lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Tinglovchilarga muayyan mavzuda tayyorlanadigan malaka ishi mavzusini tanlash huquqi beriladi. Tinglovchini o’qishga yo’llagan buyurtmachi (muassasa, tashkilot) zaruriy asoslarni ko’rsatgan holda malaka ishi mavzusi bo’yicha takliflar kiritishi mumkin.

5. Malaka ishi mavzusi akademik faoliyatni tashkil etish bo’limi taqdimnomasiga binoan ta’lim muassasasi rahbari buyrug’i bilan rasmiylashtiriladi.

6. **Muayyan mavzudagi malaka ishini** bajarish **loyiha ishi** yoki **mikrodars** shaklida amalga oshirilishi mumkin.

7. Tinglovchilarning faoliyat yo’nalishidan kelib chiqib ularning malaka ishi shakli kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti Kengashi tomonidan belgilanadi.

8. **Loyiha ishi** o’qitish uslubiyati, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish yo’nalishlari bo’yicha **muayyan bir muammoni** hal qilishga yo’naltirilgan tashkiliy-pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan o’quv-izlanish harakatlari mahsuli.

9. Loyiha ishini bajarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- *loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;*
- *loyihaviy faoliyatni tashkil etish;*
- *loyihaviy faoliyatni rejalashtirish;*
- *loyihaviy vazifalarni hal etish;*

- *natijalar taqdimotini tayyorlash;*
- *loyihaning taqdimoti va himoyasi;*
- *loyiha ishi belgilangan talablar asosida tayyorlanadi va maxsus elektron platformaga joylashtiriladi.*

10. Loyiha ishi kamida 2 nafar va ko‘pi bilan 5 nafar tinglovchilar tomonidan mustaqil bajariladi.

11. Loyiha ishining himoyasi ijrochilar guruhining umumiy taqdimoti sifatida amalga oshiriladi. Umumiy taqdimot bir ijrochi yoki bir-nechta ijrochi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

12. Loyiha ishining taqdimotida har bir ijrochi o‘zining umumiy loyihadagi ishtiroki va natijaga qo‘shgan hissasi haqida axborot beradi hamda berilgan savollarga javob beradi.

13. **Mikrodars** – o‘qituvchi tomonidan muayyan mavzu bo‘yicha cheklangan vaqt ichida o‘ziga xos, alohida usul va uslublarni tashkil qilingan dars.

14. Mikrodars ma‘lum bir mavzu yo‘nalishida aniq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil qilinadi.

15. Mikrodarsni tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- *mikrodars mavzusini tanlash;*
- *mikrodars ishlanmasini tayyorlash;*
- *mikrodars uchun ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash;*
- *mikrodars uchun tarqatma materiallarni tayyorlash;*
- *mikrodars taqdimotini tayyorlash va uni o‘tkazish;*
- *mikrodars ishlanmasi belgilangan talablar asosida tayyorlanadi va maxsus elektron platformaga joylashtiriladi.*

16. Mikrodars shaklidagi malaka ishi individual yoki kamida 2 nafar va ko‘pi bilan 5 nafar tinglovchi tomonidan hamkorlikda tayyorlanadi hamda guruhning har bir a‘zosi mikrodars qismlarini o‘tib berish orqali himoya qiladi.

17. Hamkorlikda tayyorlangan loyiha ishi yoki mikrodars taqdimoti uchun har bir tinglovchiga 5-7 daqiqa vaqt beriladi.

18. **Muayyan faoliyat** yo‘nalishidagi malaka ishi ta‘lim muassasasi yoki ta‘limni boshqaruv organining (keyingi o‘rinlarda – muassasa) oxirgi yillardagi faoliyati natijalarini tahlil qilish asosida mazkur faoliyatni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarishning o‘quv-uslubiy va tashkiliy-amaliy yo‘llarini belgilash hamda malaka oshirishdan keyingi davr uchun “Strategik reja”ni ishlab chiqish va uni bajarilishini ta‘minlash masalalariga bag‘ishlanadi.

19. Muayyan faoliyat yo‘nalishidagi malaka ishlarini bajarishda har bir tinglovchi o‘zining faoliyatini va o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan muassasani tadqiqot obyekti sifatida tanlaydi. Bunday tavsifdagi malaka ishlari uchun mavzular ro‘yxatini shakllantirish talab etilmaydi.

20. Muayyan faoliyat yo‘nalishidagi malaka ishini tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- *muassasaning oxirgi yillardagi faoliyati natijalarini tahlil qilish;*
- *muassasa faoliyatidagi mavjud muammoni yoki muassasani rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash;*
- *muammoni hal qilish yoki muassasani rivojlantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;*
- *takliflardan kelib chiqqan holda muassasani rivojlantirish bo‘yicha “Strategik reja”ni ishlab chiqish;*
- *malaka ishining taqdimotini tayyorlash va uni o‘tkazish;*
- *muayyan faoliyat yo‘nalishidagi malaka ishi belgilangan talablar asosida tayyorlanadi va maxsus elektron platformaga joylashtiriladi.*

21. Muayyan faoliyat yo‘nalishidagi malaka ishi tinglovchi tomonidan mustaqil tayyorlanadi va shaxsan himoya qilinadi.

22. Malaka ishini bajarishning oxirgi muddati akademik faoliyatni tashkil etish bo‘limi tomonidan belgilanadi.

23. Tinglovchi tomonidan malaka ishlari belgilangan muddatda baholashning maxsus elektron platformaga yuklanmagan taqdirda himoya jarayoniga qo‘yilmaydi.

2-§. Malaka ishi bajarilishiga qo‘yiladigan talablar

24. Malaka ishi ta’lim olib borilgan tilda yoki tinglovchining xohishiga binoan xorijiy tillardan birida bajariladi. Xorijiy tilda bajarilgan malaka ishiga davlat tilida annotatsiya beriladi.

25. Malaka ishi matni Times New Roman 14 kegl shrift, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tili alifbosida yoki zaruratdan kelib chiqib boshqa alifboda bayon etilishi mumkin tayyorlanadi. Malaka ishining hajmi 1,15 intervalda 10-12 betdan iborat bo‘ladi va ilovalar bunga kirmaydi.

26. Malaka ishi matni varaqning chap tomonidan 30 mm, yuqori tomonidan 20 mm, o‘ng tomonidan 15 mm, quyi tomonidan 20 mm qoldirib yoziladi. Sahifalarning tartib raqami varaqning ostki qismi markaziga qo‘yiladi.

27. **Malaka ishi** quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

titul varag‘i;

annotatsiya;

kirish;

asosiy qism;

xulosa va tavsiyalar;

strategik reja (faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha malaka ishi uchun);

foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

ilovalar.

28. Malaka ishi tarkibiy qismlari malaka oshirish kursi yoʻnalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi.

29. Malaka ishining tarkibiy qismlariga va mazmuniga qoʻyiladigan talablar kasbiy rivojlantirish taʼlim tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi va uning Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

30. Malaka ishi maxsus elektron platformada saqlanadi.

**Malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan loyiha ishi shaklida
tayyorlangan malaka ishini baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
Loyiha ishining tayyorlanish sifatini baholash mezonlari		
1.	Maqsad shakllantirilgan, aniq asoslangan va unga erishish rejası batafsil berilgan	8
2.	Mavzu muammosi aniq shakllantirilgan, asoslantirilgan va chuqur xarakterga ega	8
3.	Mavzu to‘liq ochib berilgan, muallif chuqur bilimlarni namoyish etgan	8
4.	Tanlangan metodlar to‘g‘ri va samarali qo‘llanilgan, qo‘yilgan maqsadlarga erishilgan	8
5.	Ish davomida yuzaga kelgan vaziyatlarning tahlili taqdim etilgan, zarur xulosalar chiqarilgan va ish istiqbollari belgilangan	8
Loyiha ishi himoyasining baholash mezonlari		
6.	Ish mazmunining mavzuga muvofiqligi	5
7.	Muallif ijodining mustaqillik darajasi	5
8.	Loyiha ishini taqdim etish mahorati	10
Jami ball		60

Malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan mikrodars shaklida tayyorlangan malaka ishini baholash mezonlari

Mikrodarsni baholash mezonlari

Mikrodarsda o’qituvchining dars ishlanmasini tuzish va o’quv jarayonini tashkil etish qobiliyati hamda mikrodarsni o’tish davomidagi pedagogik mahorati, foydalaniladigan metodlarning samaradorligi baholanadi. Mikrodarsni baholashda ikki jihatga e’tibor beriladi:

1. Dars ishlanmasining sifati (20 ball);
2. Tinglovchning pedagogik mahorati (40 ball).

1. Dars ishlanmasining sifatini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	To’liq (2 ball)	Qisman (1 ball)	Yo’q (0 ball)
1.	Darsning maqsadi davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturiga mos kelishi			
2.	Darsning maqsadi va kutilgan natijaning aniq va tushunarli shaklda belgilanganligi			
3.	Dars rejasining barcha bosqichlari (kirish, asosiy qism, yakuniy qism) aniq, bir-biriga mantiqan bog’liq tuzilganligi			
4.	Har bir bosqich uchun yetarli vaqt ajratilganligi			
5.	Darsda foydalaniladigan metodlar to’g’ri tanlanganmi, ya’ni ular o’quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilganligi			
6.	Dars ishlanmasida foydalaniladigan materiallar va vizual vositalar (taqdimotlar, grafiklar, videolar) to’g’ri tanlanganligi			
7.	O’quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qiladigan usullardan foydalanilganligi			
8.	Dars yakunida o’quvchilarning mavzuni o’zlashtirish darajasini aniqlash uchun faoliyatlar rejalashtirilganligi			
9.	Darsdagi har bir faoliyatning maqsadi aniq belgilanganligi			
10.	Darsdagi summativ va formativ baholashning darsning maqsadiga mosligi			
	Jami (maksimal ball – 20 ball)			

2. Tinglovchning pedagogik mahoratini baholash mezonlari

T/r	Mikrodarsni baholash mezonlari	Ball
1.	Mikrodars dars ishlanmasiga muvofiq amalga oshirildi	4
2.	Mikrodars materiallarining o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga mosligi	4
3.	Qo'llanilgan metodlarning o'quvchilarni faol ishtirok etishga unday olgani	4
4.	O'qituvchi mikrodars materialini aniq va tushunarli qilib yetkazib berdi	4
5.	O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan xushmuomalada bo'ldi, ular bilan til topa oldi	4
6.	Barcha o'quvchilarni qamrab olishga e'tibor qaratildi	4
7.	Mikrodarsga yetarli vaqt ajratildi	4
8.	Darsda ijodiy va noan'anaviy yondashuvlar ishlatildi	4
9.	Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy vositalar samarali qo'llanildi	4
10.	Dars davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni o'qituvchi hal qila oldi	4
	Jami ball:	40 ball

**Malaka oshirish kursi tinglovchisi tomonidan muayyan faoliyat yo‘nalishida
tayyorlangan malaka ishini baholash mezonlari**

T/r	Baholash mezonlari	Ball
Malaka ishining tayyorlanish sifatini baholash mezonlari		
1.	Malaka ishining tarkibiy qismlari va mazmuniga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, ma’lumotlar asoslantirilgan va mantiqiy davomiyligi keltirilgan	8
2.	Muammo aniq shakllantirilgan, asoslantirilgan va yetarli tahlilga ega	8
3.	Tinglovchi tomonidan ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha innovatsiyalar taklif etilgan	8
4.	Malaka ishida yoritilgan ma’lumotlar asoslangan (<i>maqsad va xulosalar mos</i>)	8
5.	“Strategik reja”dagi tadbirlarning malaka ishi mazmuniga mos va undagi tadbirlar, tadbirlarga belgilangan muddatlar va ijrochilar to‘g‘ri tanlangan	8
Loyiha ishi himoyasining baholash mezonlari		
6.	Ish mazmunining mavzuga muvofiqligi hamda muallif ijodining mustaqillik darajasi	5
7.	Loyihani taqdimot qilishda berilgan vaqtdan unumli foydalangan holda taqdimot mazmunini to‘liq tushuntirib bera olganligi	5
8.	Loyihada axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish darajasi, tayyorlagan taqdimotini mustaqil bajarganligi.	5
9.	Kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etishi, kommunikativ kompetensiyalarni egallaganligi, muloqot maneralarini tanlay olishi	5
Jami ball		60

“Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari
xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki
nazorati to’g’risida nizom”ga
6-ILOVA

(Kasbiy rivojlantirish ta’lim muassasasi nomi)

**_____ malaka yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish kursi
_____ guruh tinglovchilarining malaka ishi himoyasi natijalari bo‘yicha
yakuniy attestatsiya komissiyasi yig‘ilishi**

BAYONNOMASI

Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibi:

Rais: _____

A’zolar: 1. _____

2. _____

Malaka ishi himoyasi yakuniy attestatsiya komissiyasi tomonidan quyidagicha baholandi:

T/ r	Tinglovchining F.I.Sh.	Malaka ishiga qo‘yilgan baho (ball)	Shu jumladan:			Yakuniy nazorat (test)	Yakuniy attestatsiya natijasi
			Mikrodars	Loyiha ishi	Faoliyatga doin		
1.							
2.							
3.							

Izoh: Bayyonnomalr maxsus elektron platforma orqali avtomatik ravishda shakllantirishi mumkin.

Komissiya qaror qiladi:

1. “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish tartibi to’g’risida” Nizomning 49-bandiga binoan malaka ishi himoyasida jami _____ nafar tinglovchilardan _____ nafari ijobiy, _____ nafari qoniqarsiz deb baholansin.

2. Yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan _____ nafar tinglovchilarga malaka oshirganlik to’g’risida tasdiqlangan namunadagi sertifikat _____ nafar tinglovchilarga malaka oshirish kursida o‘qiganligi to’g’risidagi ma’lumotnoma berilsin.

Komissiya raisi _____

Komissiya a’zosi _____

Komissiya a’zosi _____

“ _____ ” _____ 202__y.

“Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari
xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki
nazorati to‘g‘risida nizom”ga
7-ILOVA

(Kasbiy rivojlantirish ta’lim muassasasi nomi)

**Tinglovchining malaka oshirish kursida o‘qiganligi to‘g‘risidagi
MA’LUMOTNOMA**

Ushbu ma’lumotnoma _____
viloyat, tuman,

_____ ga
tinglovchining ish joyi, lavozimi, F.I.Sh

202__ yil _____ dan _____ gacha _____ soatlik o‘quv
rejaga asosan o‘tkazilgan _____
kursning nomlanishi (yo‘nalishi)

_____ malaka oshirish kursida o‘qigani
to‘g‘risida berildi.

Rektor (direktor) _____
M.o’ (imzo) F.I.Sh.

202__ yil «__» _____ - son

Malaka oshirganlik to'g'risidagi sertifikatlarni rasmiylashtirish TARTIBI

1. Ushbu tartib malaka oshirish kurslari va ular oralig'ida tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarida to'liq ishtirok etgan va tegishli topshiriqlarni bajargan pedagog va mutaxassis xodimlarga beriladigan sertifikatlarni rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

tinglovchi – malaka oshirish kursiga qabul qilingan xodim;

maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining malaka oshirish kurslari sertifikatlar reyestri (keyingi o'rinlarda – Reyestr) – malaka oshirish kursi tinglovchilariga berilgan sertifikatlar bazasini o'z ichiga olgan elektron axborot tizimi;

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” maxsus elektron platformasi (keyingi o'rinlarda — elektron platforma) — o'quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ta'lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarni ro'yxatga olish va ularga o'quv modullarini onlayn tarzda o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizim;

yakuniy attestatsiya – malaka oshirish kurslari oxiridagi yakuniy nazorat sinovi, ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha topshiriqlarni bajarishdan iborat malaka ishini himoya qilish shaklida o'tkaziladigan baholash jarayonlari.

3. Malaka oshirish kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan tinglovchilarga kursni tashkil qilgan ta'lim muassasasi tomonidan davlat namunasidagi elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan hujjat (sertifikat) beriladi.

3. Malaka oshirish kursiga qabul qilingan tinglovchilar haqidagi ma'lumotlar kursni tashkil etgan kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda – ta'lim tashkiloti) tomonidan elektron platformaga kiritiladi.

5. Mazkur ma'lumotlar o'z vaqtida, aniq va to'liq kiritilishi uchun kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

6. Malaka oshirish kurslari yoki ular oralig'ida tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarini yakunlash buyrug'i imzolaganidan keyin

tinglovchilarning elektron platformadagi shaxsiy kabinetida kursni tamomlaganlik to'g'risida sertifikatlar shakllantiriladi.

7. Sertifikat elektron platforma orqali elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan holda beriladi.

8. Malaka oshirganlik haqidagi sertifikatlar tinglovchilarning elektron platformasidagi shaxsiy kabineti orqali taqdim etiladi.

9. Malaka oshirganlik haqidagi sertifikatlarning reyestri elektron platforma orqali yuritiladi.

10. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish sertifikatining haqiqiyligi elektron platformadagi Sertifikatlar reyestri bazasidan tekshirish orqali aniqlanadi.